

IJODIY TO'SIQLARNI BARTARAF ETISH TAMOYILLARI

Lizaxan Taspolatovna Urazmbetova
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

Annotatsiya: Andishali aktyor, rejissorning ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishga harakat qiladi-yu biron natija chiqara olmaydi. Ushbu maqola orqali yosh ijodkorlarning ushbu masalada uchrashi mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etish yo'llari haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ijodkor, bosim, talent, ijodiy barkamollik, aktyor mahorati, shaxsiy fikr

PRINCIPLES OF ELIMINATING CREATIVE BARRIERS

Lizakhan Taspolatovna Urazmbetova
Nukus branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: An actor who is anxious tries to follow the instructions of the director without saying a word, but he can't get any results. This article briefly discusses the ways to overcome the obstacles that young artists may encounter in this matter.

Keywords: creator, pressure, talent, creative excellence, actor's skill, personal opinion

Har bir ijodkor, u qaysi sohada faoliyat yuritmasin, o'zi munosabatga kirishgan obyekt qarshiligiga uchrashi tabiiydir.

Rejissor san'atining obyekti aktyordir. Aktyor qarama-qarshiligini yengib o'tish esa oson ish emas. Ba'zan u juda ham qattiq qarshilik ko'rsatishi mumkin.

Ko'pincha shunday ham bo'ladi. Rejissor o'ziga tegishli barcha vazifalarini to'g'ri bajaradi. Aktyorni, timsol talqinidan kelib chiqib, ijodiy jarayonda to'g'ri izga tushirib yuboradi. Hayotiy va badiiy haqiqat yo'lini ko'rsatib beradi. Ijodiy tasavvurini uyg'otadi. Piesadagi boshqa qahramonlar bilan munosabatlarni tushintiradi. Maqsadga erishish yo'lidagi xatti-harakatlarini belgilab beradi. Hatto sahnaga chiqib, ayrim holatlardagi vaziyatda qanday harakat qilish kerakligini ko'rsatib ham beradi. Bularning hammasi aktyordagi ijodiy tashabbusni uyg'otishga qaratilgan bo'lishiga qaramay, ijodiy tashabbus ko'zga ko'rinmaydi. Nima qilish kerak? Obyekt qattiq qarshilik ko'rsatmoqda. Uni qanday yengish kerak?

Agar aktyor rejissor ko'rsatmalariga qo'shilmasa bu ko'p ham xavfli emas. Bunday vaziyatda rejissor yana qayta tushintirish, ko'rsatib berishi mumkin. Bu ham

ta'sir etmasa, eng so'nggi chora:" mening talablarim noto'g'ri bo'lib, ko'rsatganlarim qoniqtirmasa o'zing ko'rsatib berib, bizni ishontir" deyishi mumkin.

Ammo aktyor beixtiyoriy ravishda qarshilik ko'rsata boshlasa, rejissorning talablarini to'g'ri qabul qilib, uni bajarishga har qancha harakat qilgani bilan biron natija chiqmasa, u holda nima qilish kerak? Aktyorda ijodiy jarayon boshlanmasa buning qanday chorasi bor?

-Sen rolga to'g'ri kelmas ekansan, - deb roldan olib tashlash kerakmi? Bu noto'g'ri yo'l. Aktyor qobiliyatli va aynan shu rolga juda ham to'g'ri keladi. Bo'lmasa nima qilish kerak?

Eng avvalo aktyordagi ijodiy jarayon boshlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki qarama-qarshilik nimadan iborat ekanligini aniqlash lozim. Agar o'sha qarama-qarshilik manbani aniqlansa, to'siqni o'rtadan ko'tarib tashlash oson ko'chadi. Biroq xalaqit berayotgan to'siqni aktyordan qidirishdan avval, rejissorning o'zi aktyorning ichki siqiliga sababchi bo'lgan biron-bir xatolikka yo'l qo'ymadimmikan, degan fikrda o'z faoliyatini birma-bir tahlil chiqishi lozim. Ko'pincha rejissor mumkin bo'lmagan narsani talab qilib aktyorni qiynab qo'yadi. Andishali aktyor, rejissorning ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishga harakat qiladi-yu biron natija chiqara olmaydi. Deylik, rejissor berilgan parchada aktyordan murakkab vazifani talab qiladi. Ammo bu vazifa aktyor shu parchaga qadar bajarib kelgan vazifadan mutlaqo farq qilgan, avvalgi sahna bilan uzviy bog'liqligi yo'q, timsolning psixologiyasidan kelib chiqmas, natijada aktyor bu vazifani bajarish imkoniyatidan mahrum bo'lib, noqulay ahvolga solib qo'yilgan bo'ladi.

Yoki, rejissor tomonidan aktyor oldiga qo'yilgan vazifa, shu aktyor imkoniyatidan tashqarida bo'lib, uning jismoniy va ifodaviy imkoniyatlari bu vazifani bajarishdan o'zgarib ketishi mumkin.

Demak, xatolikni aktyordan qidirishdan avval, rejissor xatolikni o'zidan qidirishi kerak ekan. Bunday vaziyatda dastlabki qo'yilgan vazifadan voz kechib, aktyorning imkoniyatidan kelib chiqib vazifa belgilanishi o'rinli bo'ladi. Bundan tashqari aktyorga vazifa berilishi bilan uni so'zsiz bajarilishi talab qilinadigan bo'lsa, kutilgan natija chiqmaydi. Aktyor jonli ijro jarayoni o'rniga holatni ko'rsatishga, aks etdirishga o'tib ketadi.

Agar ijodiy siqilak aktyorning o'zida bo'lsa u holda nima qilish mumkin?

U holda, ana shu to'siqlik va siqilak sababini qidirib topish kerak bo'ladi.

1. *Aktyorni o'z partnyori yoki o'zini qurshab turgan muhitga nisbatan diqqat va e'tibori sustligi.*

Yuqorida ko'rib o'tganlarimizdan bizga ma'lumki, sahnada turgan aktyor har daqiqa o'z diqqatini biron-bir obyektga bog'lashi lozim.

Aksariyat hollarda, sahnada turgan aktyor hech kimni ko'rmaydi, eshitmaydi. Bunday vaziyatda jonli ijro jarayoni o'rniga bir qolipdagi holat qaytariladi. Ijodiy

siqqlik vujudga keladi. Sababi aktyorni sahnada bo'lishi jarayonida, uning diqqatini uzluksiz o'ziga qaratib turadigan manba yo'qligida. Ijodiy jarayonning eng katta to'siqlaridan biri shu yerda yotgan bo'ladi. Goho, shu kichkina to'siq olib tashlanishi bilan ijodiy jarayon boshlanib ketadi. Bunda rejissor, aktyor-timsol kimga quloq solishi, nimani ko'rishi, kimga qarata gapirishini, yo'l-yo'lakay aytib yuborishi ham, aktyorning ichki ijodiy faoliyati jonlanib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Ba'zan aktyor, rolning eng mas'uliyatli sahnasini his-hayajonga to'lib toshib, xaddan ziyod bo'rttirib, sezgilarini namoyish etishga o'tib ketadi. Birdan o'zini noto'g'ri o'ynayotganini sezib qolib, rejissorga jahl qiladi. Rolini uloqtirib sahnadan chiqib ham ketadi. Shunday vaqtlarda rejissor unga baqirish, tahdid qilish o'rniga uni yoniga chaqirib tinchlantirishi so'ngra sahnaga chiqarib shoshilmay "partnyorining kostyumi qaysi rangda, nechta tugmasi bor ekan, sochini rangi qanaqa ekan, shoshilmay ko'rib chiqing-chi" deyishi zarur. Aktyor asta-sekin diqqatini kerakli manbaga qaratganini o'zi ham sezmay qoladi. Asablari bo'shshadi. Ichki siqqlik yo'qoladi. Ana shundan keiyingina"keling repetitsiyani kelgan joyimizdan boshlaylik deb, ishonch va ijodiy muhitni yaratishi zarur bo'ladi. Qarabsizki, aktyor sahnada boshqacha hayot bilan yashayboshlaydi. Sahna jonlanadi, qahramon piesa voqealari doirasida harakat qilaboshlaydi. Agar bunda ham biron natija chiqmasa, unda nima qilish kerak?

Bunday vaziyatda aktyorga boshqa biron narsa to'siqlik qilayotgan bo'ladi.

2. *Mushakllar tarangligi.* Aktyor uchun ijodiy jarayonga to'siqlik qiladigan omillardan yana biri bu-mushakllar tarangligi hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, aktyor sahnadagi vazifasidan kelib chiqib, e'tiborini ma'lum obyektga qaratib, diqqatini o'sha manbaga to'plasa mushakllar tarangligi, o'z-o'zidan yo'qolganini ham sezmay qoladi.

Yoki, badanidagi biron a'zosidagi muskullar taranglini bartaraf etaolsa, o'z-o'zidan sahnaviy diqqat jonlanib xayotiylik, sahnadagi bajarayotgan ishida maqsad va qiziqish paydo bo'ladi. Ayrim holatlarda rejissor sahnada harakat qilayotgan aktyorga "*chap oyog'ingizni, bo'yingizni, yelkangizni va. x. k. z'larni bo'shating*" deya pastdan ikki-uch og'iz so'z aytib yuborsa, aktyor darhol o'zini o'nglab olishi mumkin.

3. *Sahnada zaruriy oqlashning (opravdanie)bo'lmasligi.* Ba'zan shunday ham bo'lishi mumkin. Sahnada harakat qilayotgan aktyor, timsol sifatida bajarishi kerak bo'lgan biron ishni oxirigacha bajarmay, ikkinchi ishga o'tib ketishi mumkin. Boringki bu ish unchalik muhim bo'lmasa ham aktyor unga e'tiborsizlik qilishi oqibatida to'g'ri yo'ldan chalg'ib ketishi, o'zini yo'qotib qo'yib, sahnaviy taranglik paydo bo'lishi mumkin. Mana shunday kezlarda rejissor, e'tiborsizlik qilingan o'sha ish yoki buyum nimaligini aktyorga aytib yuborishi, ko'rsatib berishi zarur. Aktyor

unitib qoldirgan narsasini qaytadan to'g'ri bajarishi natijasida, timsolning uzluksiz harakati topiladi.

4 *Ijodiy ozuqaning yetishmasligi.* Bunday sabab ham ijodiy taranglikka olib kelishi ehtimoldan holi emas. Ko'pincha bunday holatlar, aktyor tomonidan xayotiy kuzatuvlari, to'plagan bilimlarini oldingi repetitsiyalarda ishlatib qo'yganligi, ayni chog'dagi repetitsiyada esa zahirasida ishlatishga arzigulik bilimi yetishmasligi oqibatida paydo bo'ladi. Ammo hali repetitsiyalar tugagani yo'q. Ish davom etishi kerak. Dastlabki suhbatlar chog'ida foydalangan bilimlarini yana qayta foydalanishning iloji yo'q. Oqibatda u, repetitsiyalardan zerika boshlaydi. Repetitsiyalar bir joyidan siljmaydi. Agar aktyorda oldinga siljish bo'lmasa, demak u orqaga ketadi. Avvalgi topgan topilmalarini ham yo'qotib qo'yadi.

Bunday vaziyatda rejissor nima qilishi kerak? Eng to'g'ri yo'l, repetitsiyani to'xtatib, aktyorga ijodiy ozuqa bo'ladigan bilim bilan aktyorni ozuqlantirishga o'tgani ma'qul. Aktyor bilan qahramon xayotiga ta'luqli voqea va xodisalarni yana qaytadan ko'z oldiga keltirishi, esga tushirishi kerak. Xayot biz o'ylaganimizdan ko'ra rang-barang va boyroq. Unda hamisha avval ko'rmagan, sezmagan e'tibor bermagan narsalarni istalgancha topish mumkin. Shuning uchun aktyor bilan birgalikda tasavvurni ishga tushirishi, hayolat og'ushiga sho'ng'ishi lozim bo'ladi. Natijada yangi fikr, yangi so'z tug'iladi va ijodiy jarayon qaytadan jonlanib ketadi.

5. *Aktyor tomonidan holatni ko'rsatishga o'tib ketish.* Aktyor ijodiga to'sqinlik qiladigan yana bir jiddiy omil, bu aktyor o'zi ko'z oldiga keltirib qo'ygan timsolning holatini namoyish etishga o'tib ketishidir. Agar aktyorda shunday namoyishkorlik paydo bo'lib qolsa rejissor darhol uni to'xtatib, timsolning maqsadi va bajarishi kerak bo'ladigan ishni uning yodiga tushirib repetitsiyani yana ijodiy jarayon tomon burib yuborishi kerak bo'ladi.

6. *Yo'l qo'yilgan sohtalik.* Ko'pincha shunday ham bo'lishi mumkin. Aktyor tashqaridan uyga kiradi. Ustidagi yomg'ir tomchilarini sidirib tashlab kostyumini yechadi va sahnadagi xal qiluvchi vazifani bajarishga kirishadi. Lekin negadir aktyor harakatlari sohta beo'hshov chiqadi. Nega? Nima uchun sahnaviy xaqiqat o'rniga ishonchsizlik, sun'iylik paydo bo'lib qoldi? Buning sababi aktyorning xonaga kirgan vaqtida dastlabki yo'l qo'ygan arzimas xatosi, katta xatolikni keltirib chiqarganida bo'ldi.

Shuning uchun rejissor sun'iylik, soxtalik paydo bo'lishi bilanoq, uning katta-kichikligiga qaramay darhol aktyorni to'g'ri yo'lga solishi zarur. O'sha bir tomchi yomg'ir suvini aktyor ko'rishi, uni sidirib tashlashi kerak, kostyum tugmalarini bir-bir yechishi va qoziqqa ilishi, so'ngra yeng shimarib ishga kirishi kerak. Bu oddiy jismoniy xarakatlarni to'g'ri va aniq bajarilishi. aktyorni sahnaviy xaqiqatdan chetlashishiga yo'l qo'ymaydi. Aktyorning har bir xatti-harakatini diqqat bilan nazorat qilib turishi kerak bo'lgan rejissor, kichik xatoliklarni mensimay, e'tiborsizlik qilib,

o'tqazib yuborishi oqibatda katta sohtalik, katta sun'iylikni keltirib chiqarishini hamisha yodda saqlashi zarur.

Demak, *repetitsiya qilinayotgan sahnani xaqqoniy va ishonarli tarzda meyyoriga yetkazib tayyorlamay turib, boshqa sahnaga o'tib ketish rejissorning eng katta xatosi ekan.*

Xatto arzimagan bir og'iz so'z, ibora, bir qarashni to'g'ri aks etdirish uchun ikki-uch repetitsiya bag'ishlansa ham badiiy xaqiqatga erishmagunicha boshqa sahnani repetitsiya qilishga kirishmaslik lozimdir.

Ayrim rejissorlarga xos bo'lgan yana bir qusurli usul bu bo'lajak spektaklning barcha ko'rinish va sahnalarini avvaliga mizansahnalarini sohib tashlab, keyin har bir ko'rinish va sahnani shoshilmay meyyoriga yetqazaman deb, hayol qilishdir. Bunday tarzda repetitsiya o'tqazish, aktyorni soxtalik va yuzakichilikka odatlantirib qo'yadi. Natijada aktyor, rolning rivojlanib borish jarayonini emas aksincha tayyor natijasini ko'rsatishga o'rganadi.

Yoki, hali repetitsiya qilinib, meyyoriga yetkazilmagan ko'rinish yoki sahnani yakuniy natija sifatida bir necha bor takrorlab mustaxkamlab olish ham o'ta xatolikdir. Chunki keyingi repetitsiyalarda ayni shu sahnalarda ijodiy jarayon ro'y bermaydi. Aktyor bir qolipga tushib, mizansahna va so'zlarni mexanik tarzda takrorlashga o'tib oladi. Ana unda, aktyorni qaytadan ijodiy jarayonga o'tqazish mumkin bo'lmay qoladi. Faqat to'g'ri yo'nalish bo'yicha harakat olib borilayotgan sahnalarnigina qaytarib olish mumkin. Bu jarayonda ba'zi nozik harakat va imo-ishoralar meyyoriga yetmagan bo'lsa ham keyinchalik ular repetitsiya jarayonlarida boyitilib, to'ldirilishi mumkin.

Aktyorning diqqatini jamlashi, mushaklar erkinligi, sahnaviy oqlash, tassavurni faolligi va xayotni yaxshi bilishi, xarakatga chorlovchi maqsadni yaxshi anglaganligi natijasida, partnyorlar bilan o'z-aro to'g'ri munosabat o'rnatilishi, badiiy xaqiqatni qaror topishi, bularning hammasi aktyorning ijodiy kayfiyatini belgilovchi omillar hisoblanadi. Agar shu omillardan birontasi bo'lmasa, ijodiy jarayon izidan chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M. "Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati" – "Tafakkur qanoti" nashriyoti-T.: 2014.
2. Djon Benedikt. "Aktyorning o'z ustida ishlashi"(K.S.Stanislavskiy)- 2-qism. Routledge .2008.
3. Leonard Petit "Forte Actor" ("Aktyor texnikasi")- Taylor & Francis, 2009.
4. Maxmudov J. Maxmudova X."Aktyorlik mahorati ".T.:Lesson Press" nashriyoti, 2016y.
5. Stanislavskiy K. S. "Aktyorning o'z ustida ishlashi". T.Xo'jayev tarjiması.– T.: (qayta nashr) Badiiy adabiyot, 2010.